

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

5111200. O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

QO‘SHNAZAROV ZAMONBEK UMIRBEK O‘G‘LINING

**«O‘ZBEK TILI DARSLARIDA KO‘MAKCHILARNI
O‘RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI»**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2017

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek tili kafedrası yig‘ilishining 2017-yil «___»
_____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

Kafedra mudiri: p.f.n. Sh. Yuldasheva

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

Bitiruvchi: Z. Qo‘shnazarov

Qo‘shnazarov Zamonbekning «o‘zbek tili darslarida ko‘makchilarni o‘rgatishning zamonaviy usullari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («__%») qo‘yildi.

«___» _____ 2017-yil

DAK kotibasi:

U.Y.Ibragimovna

MUNDARIJA

Kirish. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.	4-8
I BOB. Ko‘makchilarning ma‘no xususiyatlari	9
1.1. Ko‘makchilarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi	9-13
1.2. Sof ko‘makchilar	13-22
II BOB. Ko‘makchilarning sintaktik xususiyatlari	23
2.1. Ko‘makchilarning so‘z birikmalari tarkibidagi sintaktik xususiyatlari	23-29
2.2. Gap tarkibida ko‘makchilarning ishlatilishi	29-34
III BOB. BMI ning amaliyotga tadbiqu	35
3.1. Ta‘lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan sinf o‘quvchilariga ko‘makchilarni o‘rgatishning zamonaviy usullari	35-41
3.2. Ochiq dars ishlanmasi	42-47
3.3. Olingan natijalar	48-51
Xulosa	52-53
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati	

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal sur‘atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo‘jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta‘lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berila boshlandi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Davlat ta‘lim standartlari”ning chop etilishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

Ta‘lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida “Nimani o‘qitish kerak?” degan savolga javob izlash bilan shug‘ullanadilar va hali-hamon bu savolga to‘liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo‘q. Ta‘lim mazmuni bo‘yicha berilgan va berilayotgan barcha ma‘lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto‘xtov ilgarilab boradi.

Ta‘lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Til materiallarini o‘zlashtirishda ona tili metodikasining eng muhim talablaridan biri – til sathlarining alohida-alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda, yaxlitlikda o‘rganilishidir. Buning uchun yuqorida ta‘kidlaganimizdek, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylanishi, ya‘ni fonetika,

morfologiya, soʻz tarkibi, sintaksisni oʻrganishda ham oʻquvchilarning soʻz boyligini oshiruvchi oʻquv topshiriqlardan foydalanish zarur.

Shu bilan birga ona tilidan oʻquvchi lugʻatining boyib borishida yana bir ulkan xazina – uzluksiz taʼlim muassasalarida oʻrganiladigan boshqa oʻquv fanlarining ham ulkan hissasi bor. Oʻquvchining lugʻat zahirasini boyitish, ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matnlar yaratishda fanlar aro aloqadorlikni yoʻlga qoʻyish ulkan muvaffaqiyatlar xazinasiga bitmas-tuganmas terminologik manbalarga egalik qilish demakdir.

Tadqiqotning obyekti. Har bir milliy til oʻz taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetk normalari barqarorlashadi, lugʻat tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil shaklda ifodalash xususiyatiga ega boʻladi. Lekin hech bir til oʻz holicha, alohida rivojlanmaydi. Boshqa tillar bilan mustahkam aloqada taraqqiy qiladi. Sh tufayli qarindosh tillar orasidagi umumiy va oʻziga xos tomonlarni tadqiq etish, ikki til orasidagi tafovut va oʻxshashliklarni tarjimada qanday berish masalalarini oʻrganish qiyosiy tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Har qanday bilim zaminida taqqoslash yotar ekan, qiyoslanuvchi tillarning oʻziga xos jihatlarini ochishda qiyosiy va tavsifiy usullarning ahamiyati benihoya kattadir.

Tadqiqotning predmeti. Oʻzbekistonda uzluksiz taʼlim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shu asosda taʼlim sifatini jahon andozasiga yetkazish eng dolzarb vazifaga aylandi.

“Har qaysi millat yoki xalqning maʼnaviyati, uning bugungi hayoti va taqdirini oʻsib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda, shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”¹ – degan edi Oʻzbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov. Bugungi kunda ona tilini oʻrganishdan koʻzlangan maqsad nutqning, imloning yuqori darajasiga erishishdir.

Hozirgi kunda ona tili taʼlimi boʻyicha Davlat standartiga koʻra uch omilga erishish koʻzda tutilmoqda:

¹ I.A.Karimov. “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kush”. T. “Maʼnaviyat”, 2008, 176 b.

1. Ijodiylik;
2. Mustaqil fikrlash;
3. Fikr mahsulini nutqiy vaziyatga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Yordamchi so‘zlarning bir turi bo‘lgan ko‘makchilar har ikkala tilda gapdagi bo‘laklarni yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko‘makchilar ham sintaktik aloqaning yuzaga chiqishida muhim vosita bo‘lib, mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lmagan, gapda tenglik yoki ergashtiruvchilik munosabatini ifodalay oladigan morfologik birlikdir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘z turkumlari Sh.Shoabdurahmonov, R.Rasulov, S.Karimov, R.Qo‘ng‘urov, M.Qurbonov, N.Ernazarov, A.Pardaev, T.Rustamovlar tomonidan tadqiq qilingan. Q.Davletbaev, E.Dauenov, M.Dauletov, A.Bekbergenov, Q.Bekbergenov, Z.Tileuova, B.Shrazovlar qoraqalpoq tilidagi yordamchi so‘zlarni o‘rganganlar. O‘zbek va qoraqalpoq tilidagi yordamchi so‘zlar o‘rganilgan tadqiqotlar har ikki tildagi ayni yoki o‘xshash ko‘rinishga ega hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Ta‘limda izchillik tamoyili sistemalik tamoyili bilan bog‘langan ona tili dasturida mavzularning ketma-ket berilishi izchillikni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Qoraqalpoq o‘quvchilariga o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarni, jumladan ko‘makchilarni o‘rgatish ularning o‘z ona tillarida olgan bilimlariga asoslaniladi. O‘zbek tilidagi sof ko‘makchilar, ko‘makchi vazifasida qo‘llaniladigan mustaqil so‘z turkumlarining lisoniy xususiyatlarini o‘rgatishning zamonaviy usullarini tadqiq qilish bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. So‘z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali. Shunga erishish lozimki, o‘quvchi yangi va notanish so‘zga e‘tiborsiz bo‘lmasin. Uning ma‘nosini anglashga, zarur paytlarda o‘z nutqida qo‘llashga harakat qiladigan bo‘lsin. Yordamchi so‘zlarning, jumladan ko‘makchilarning ma‘no va

qo‘llanish xususiyatlarini yaxshi anglab olishi lozim. Sof ko‘makchilarni, ularning so‘z birikmasi va gap tarkibidagi vazifalarini puxta bilishi lozim.

Ko‘makchi vazifasida qo‘llanadigan mustaqil so‘zlarning grammatik xususiyatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish lozim. Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyat, ma’rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar tog‘risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo‘llari haqidagi qarashlari hamda til va uslub mavzusida qilingan tadqiqotlar metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Shuni aytish lozimki, ona tilning barcha sathlarini o‘rganish jarayonida tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o‘rganadilar. Til sathlarini tashkil qilgan bu unsurlar har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, ular o‘zaro uzviy bog‘langan. Ko‘makchilarda ham kategorial ma’no va o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan leksik ma’no mavjuddir. Ko‘makchilarning kategorial ma’nosi ularning boshqa bir mustaqil so‘zga birikib kelishidir. Ko‘makchilar ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratadilar. Ya’ni tobe bo‘lakka birikib, o‘sha tobe bo‘lakning hokimbo‘lakka tobelanish munosabatini ta’minlaydi. Ko‘makchilar shu xususiyati bilan mustaqil ma’noli so‘zlardan farqlanadi.

Ko‘makchilarning grammatik xususiyatlarini qoraqalpoq o‘quvchilariga o‘rgatishda hozirgi ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv metodlardan foydalanish yo‘llarini o‘rganishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Malakaviy ishda yoritilgan mavzuga oid fikrlarimizdan umumta’lim maktab o‘qituvchilari, so‘z turkumlari, shulardan “Yordamchi so‘zlar”ni, ”Ko‘makchilar” mavzularini o‘rgatishda foydalanishlari mumkin. Tadqiq davomida bayon etilgan xulosalardan Ona tilini o‘qitish sifatini oshirishda, yordamchi so‘zlar mavzusiga doir dars

ishlanmalarini yaratishda, sinfdan va maktabdan tashqari to‘g‘arak mashg‘ulotlarida foydalansa bo‘ladi.

Ishning sinalishi, natijalarning ommalashtirilishi. Bitiruv malakaviy ishida bildirilgan fikrlardan pedagogik amaliyot davrida o‘quvchilarning o‘zbek tilidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, savodxonligini oshirishda foydalanildi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I. BOB.KO‘MAKCHILARNING MA’NO XUSUSIYATLARI

1.1. Ko‘makchilarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

Har qanday tili o‘zining ichki qonuniyati asosida rivovlanadi. Jumladan, tildagi leksik qatlamlar asosida neologizm vujudga kelganidek, arxaik so‘zlar iste‘moldan chiqa boshlaydi. Shuningdek, tilda yangi ko‘makchilarning paydo bo‘lishi u tilning leksik boyligining rivojlanishida, Grammatik strukturasi takomillashishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday ekan, ko‘makchilar nutqimizda grammatik kategoriya sifatida alohida o‘rin tutadi. “Ko‘makchilarning kelib chiqishini o‘rganishning muhim nazariy ahamiyati bor. U leksikologiya va semasiologiyaning qator masalalarini hal etishda muhimdir. Har qaysi so‘z turkumidagi so‘zlarning rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, shu bilan birga so‘zdagi leksik-grammatik ma’nolarining o‘zaro bog‘liq ekanini ham isbotlab beradi”. Shuning uchun ham olimlarimiz “Ko‘makchi” temasini o‘rganishga alohida ahamiyat berib kelmoqdalar.

Turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida, bu tema monografiya, broshyuralarda Zeynalov F.R., Isangalieva V.A., Kononov A.N., Rustamov T., Хыдыров M., Shoabdurahmonov Sh., hamda dissertatsiyalarda Aleksandrov A, Axtamova X.T., Berdiyarov X, Kenjabaeva F, qator ilmiy maqolalarda Abdullaev A, Aydarov G., Isxakov F. Kabi olimlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan.

Umuman grammatik kategoriyalar, jumladan ko‘makchilar ham, qiyosiy yoki tarixiy-qiyosiy aspektga o‘rganilgandagina samarali natijalar berishi mumkin. Shuning uchun ham turkiy tillardagi ko‘makchilar ikki yo‘nalishda qiyosan o‘rganilgan: 1. Ayrim turkiy tillardagi ko‘makchilar rus tilidagi predloglarga qiyoslangan Masalan: Gazizov R.S, Dmitriev N.N va Chistyakov V.M., Rezyukov N.A. 2. Turkiy tillardagi ko‘makchilar o‘zaro qiyoslangan. Masalan: Zeynalov F.R, Levitskaya L.S., Mamedov N. Lekin Ularning paydo bo‘lishi yetarli yoritilmagan.

Turkiy tillardagi ko‘makchilarning, jumladan o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning, tarixiga oid fikrlar lug‘atlarda, darsliklarda, dissertatsiyalarda qisman aytilgan. Bundan tashqari, hozir mavjud bo‘lgan turkiy tillarning hamma darsliklarida ko‘makchilar temasi yoritilgan. Lekin turkiy tillarda ko‘makchilarning jumladan o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyoti alohida tekshirish obyekti bo‘lmagan, vaholangki, ularning har biri o‘z tarixiga ega bo‘lib, bugungi shaklga kiringunga qadar ko‘pgina bosqichni bosib o‘tgan, talay o‘zgarishlarga duch kelgan. Shuning uchun ham ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganish o‘sha ko‘makchi taalluqli bo‘lgan tilning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. “Hamma ko‘makchilar (ot ko‘makchilar ham ko‘makchi yuklamalar ham) o‘zlarining kelib chiqishlariga ko‘ra yo otlarga yo fe’llarga uzluksiz ravishda bog‘liqdirlar”. Shunday ekan turkiy tillardagi ko‘makchilar, jumladan o‘zbek tilidagi ko‘makchilar ham mustaqil ma’noli so‘zdan kelib chiqqanlar.

Tilda yangi so‘zning paydo bo‘lishi o‘sha tilning ichki rivojlanish qonuniyatiga bog‘liqdir. Affiksatsiya yo‘li bilan yangi so‘z yasalganda tilning lug‘at boyligi ortadi. Shuningdek, mustaqil ma’noli so‘zlarning yordamchi so‘z turkumiga o‘tishi ham o‘sha tilning ichki rivojlanish qonuniyati asos bo‘ladi. Shunday qilib, tilning rivojlanishidagi birinchi va asosiy omil uning ichki qonuniyati bo‘lsa, ikkinchi omil tashqi muhitning ta’siridir. Har qanday til boshqa bir tilning ta’sirida ma’lum bir o‘zgarishga, rivojlanishiga ega bo‘lganida ikkita alohida-alohida tilde gaplashadigan xalqlarning o‘zaro ijtimoiy munosabati katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham fors-tojik va arab ham boshqa tillarning ta’siri natijasida o‘zbek tilida fors-tojik , arab va boshqa tillardan kelib kirgan ko‘makchilarni uchratamiz: binoan, ravishda, yanglig‘ va b.. Bundan haolatlar ham wu monografiyada alohida masala sifatida e’tiborga olinadi.

Mustaqil so‘zlarning ko‘makchi so‘zlar turkumiga o‘tishi undagi leksik va Grammatik xususiyatlarning o‘zgarishiga olib keladi. Ko‘makchilar Grammatik kategoriya bo‘lgani uchun ham o‘zbek tilida ko‘makchilarning paydo bo‘lishi o‘zbek tili grammatikasining bir elementi hisoblanadi.

Umuman, ko‘makchilar turkumiga taalluqli qator nazariy masalalar borki, ularni aniq tasavvur qilish uchun ko‘makchilarning hozirgi nutqimizdagi xususiyatiga qarabgina emas, balki uning tarixiy taraqqiyotiga ko‘ra aniqlash lozim bo‘ladi. Masalan, ko‘makchilarning qaysi mustaqil so‘zlardan ko‘makchiga o‘tishi tarixiy jarayonda har xil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har qaysi ko‘makchining tarixiy taraqqiyoti o‘rganilgandagina mustaqil so‘z turkumidagi so‘zlarning yordamchi so‘zga, ko‘makchiga o‘tishidagi qonuniyati haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, hozirgi o‘zbek tilida –la, –lan affikslarining otlardan fe‘l yasashi olimlarimiz tomonidan qayd etiladi. Bu mutlaqo to‘g‘ri fikr. Lekin birlan ko‘makchisining etimologiyasi haqida fikr yuritilganda bir son so‘ziga –lan affiksi qo‘shilganidan birlan ko‘makchisi paydo bo‘lgani aytiladi. Birlan ko‘makchisining qaratqich kelishigidagi olmoshga birikishi uning fe‘l turkumiga emas, ot turkumiga yaqin ekanidan dalolat beradi. Bunday masalalarga wu monografiyani yoritishda alohida e‘tibor beriladi.

Har qanday tildagi so‘zlar avvalo ikkita gruppaga bo‘linadi:

1. Mustaqil ma‘noli so‘zlar; 2. Yordamchi so‘zlar. Har ikki gruppadagi so‘zlar o‘z ichida yana qismlarga ajratiladi.

Ko‘makchilarning mustaqil so‘zlarga munosabati, ularning bir-biridan farqi muhim masalalardandir. Bir guruh olimlar ko‘makchilarning so‘z ekanini tan olmaydilar. Natijada quyidagi xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. “Yordamchi so‘zlar” terminini ishlatadilar-da, ularning so‘z ekanini tan olmaydilar. Bunda mantiqsizlik paydo bo‘ladi.
2. Yordamchi so‘zlar, jumladan ko‘makchilar ham mustaqil so‘z turkumlaridan kelib kirganini aytadilar-u, ularning so‘z ekanini tan olmaydilar.
3. Ko‘makchilarni tasnif qilganlarida ko‘makchi yuklamalar, yordamchi otlar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, fe‘l-ko‘makchilar deb ataydilar va ular qanday atalmasin, ko‘makchilik xususiyati mavjud ekanini tan oladilar. Lekin ko‘makchilarning so‘z ekaniga shubha qiladilar. Vaholangki ot-ko‘makchilar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, fe‘l-ko‘makchilar deyilgan termin har qanday ko‘makchini qaysi so‘z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir.

Shuning uchun ham ko‘makchilar keying paytlarda, asosan, ikkita katta gruppaga-sof ko‘makchilar va funksional ko‘makchilarga bo‘linadi.

Sof ko‘makchilar qanday so‘z turkumidan o‘tib kelishidan qat’i nazar, relyativ munosabatni hosil qilib, undagi leksik ma’no ham ma’lum darajada o‘zgaradi. Ya’ni u ko‘chma ma’no ifodalaydi yoki ko‘makchi bajarayotgan relyativ munosabatning yaratilishida xizmat qiladi. Sof ko‘makchilar tarkibidagi morfologik qo‘shimchalar o‘zlariningh Grammatik xususiyatini batamom yoki qisman yo‘qotib, o‘zi birikib kelgan so‘zning ko‘makchi funksiyasini bajarishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi nutqimizda ham ko‘makchi, ham mustaqil so‘z sifatida qo‘llanayotgan ko‘makchilar funksional ko‘makchilar termini bilan ataladi. Funksional ot-ko‘makchilar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, va fe‘l-ko‘makchilar bo‘linadilar.

4. Ko‘makchilarning sotsial qiymatga ega bolgan tuvushlar yig‘indisidan iborat ekanini tan olish ularning so‘z ekanini tan olish demakdir.

5. Ko‘makchilarning o‘z urg‘usiga ega bo‘lishi ularning so‘z ekanidan dalolat beradi.

6. Ko‘makchilar mustaqil ma’noli so‘zlarga bemalol birikaveradi. Shunday ekan, ko‘makchili so‘z birikmasi yaratiladi. Komakchining bu xususiyati ham uning so‘z ekanidan darak beradi

Ma’lumki hozirgi tilimizda mavjud bo‘lgan ko‘makchilarni so‘z deyish kerakmi yoki yo‘qmi ekanini aniq tasavvur qilish uchun o‘sha ko‘makchilarning etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, mustaqil so‘zlar va ko‘makchilarning grammatikada, leksikada o‘z o‘rinlari borki, bu masala ularning o‘zaro tafovutini aniqlashda katta axamiyatga ega.

Bir guruh olimlar ko‘makchilarda leksik ma’no yo‘qolib, faqat Grammatik ma’no qoladi, deyilar. Ikkinchi guruh olimlar esa ko‘makchilarning Grammatik ma’noga ega bo‘lishini tan olib, birinchi guruh olimlarga qo‘shiladi. Lekin ko‘makchilarda to‘liq bo‘lmaganda ham ma’lum miqdorda leksik ma’no saqlanib

qolishini qayd etib, birinchi guruh olimlardan farqlanadi. Shuning uchun ham ikkinchi guruh olimlar ko‘makchilarni “nepolnoznachnye slova” termini bilan atashni ma’qul ko‘radilar. Masalan, ikkinchi guruh olimlardan biri B.B.Vinogradov: “Rus tilidagi ko‘makchilar o‘zlarining leksik mustaqilligini ma’lum darajada saqlab qoladilar”,– deydi².

Ma’lumki, so‘zning mazmun tomoni undagi leksik va grammatik ma’nolarining birligidan tashkil topadi. Shunday ekan, mustaqil ma’noli so‘zlarda ham, yordamchi so‘zlarda ham leksik va grammatik ma’no mavjud. Lekin bundan ular mustaqil ma’noli so‘zlardagi leksik va Grammatik ma’noga teng xususiyatiga ega degan fikr kelib chiqmaydi. Avvalo, Grammatik ma’no, kategorial ma’no leksik ma’no deyilgan terminlarni aniqlaylik, keyin shu terminlarni yordamchi so‘zlarga , jumladan ko‘makchilarga qo‘llanganda nimalarga e’tibor berish lozimligi haqida fikr yuritamiz.

1.2. Sof ko‘makchilar

Ko‘makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlar bildirish uchun qo‘llanadigan so‘z turkumidir.

Ko‘makchilar tarixan mustaqil so‘zlar bo‘lgan bo‘lsa ham ular hozirgi zamon o‘zbek tilida leksik ma’nolarini yo‘qotgan, grammatik ma’nosigina bor so‘zlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon o‘zbek tilida faqat boshqa so‘zlar bilan birga ishlatiladi.

Ko‘makchilar o‘zgarmaydi (tarlanmaydi va yasalmaydi), kelishiklarni boshqaradi. Masalan, sening uchun (qaratqich kelishigi, uyga tomon (jo‘nalish kelishigi).

Hozirgi zamon o‘zbek tilida ko‘makchilarning ikki xili uchraydi. Bular: bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar singari mustaqil ma’nosini tamoman yo‘qotgan so‘zlar va tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli,

² Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). –М.-Л. 1947. –С.677.

qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra singari ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan ko'makchilikka ko'chgan so'zlardir.

Boshqa turkiy tillarda va shuningdek, o'zbek tilida ham ko'makchilar semantik jihatdan biror kelishikdagi so'z bilan aloqador bo'lgani va bu ko'makchili birikmaning ma'nosi turli sintaktik munosabatlarni ifodalash bo'lgani uchun ko'makchilarning qaysi kelishikni boshqarib kelishi, ya'ni sintaktik tomoni hisobga olinishi kerak.

Sintaktik tomondan ko'makchilar quyidagi gruppalariga bo'linadi: 1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar.

Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlari ifodalash uchun qo'llaniladigan bilan, uchun, kabi, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli ko'makchilari bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi.

Yo'nalish, saba, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan ko'ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Bilan. Bu ko'makchi o'zi birga kelgan so'z bilan birgalikda quyidagi ma'nolarni bildiradi. Birgalik, hamkorlik ma'nosini ifodalaydi: Abdukarim ishini shogird bolaga topshirib Haydarov bilan hujraga qaytdi.

Uchun. Bu ko'makchi, asosan, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Maqsad ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi.

2.Sabab ma'nolarini ifodalaydi.Masalan: A'lo oqigani uchun mukofotlandi.

3.Atash ma'nolarini ifodalaydi.Masalan: Bu kitoblarni sen uchun oldim, alamlarni Salima uchun.

4.Evaz ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Rahmat, So'naxon yo'qlab topib kelganingiz uchun rahmat.

Kabi. Bu ko'makchi o'xshatish, solishtirish, qiyoslash ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Novdalardan onalarning sog'inch to'la yuraklaridan oqqan ko'z yoshlari kabi tomchilar tomardi.

Singari. Bu ko'makchi **kabi** ko'makchisining sinonimi bo'lib u ham, asosan **kabi** ko'makchisi anglatgan ma'nolarni anglatadi. Masalan: Yigit uzoqda haybatli temir uyumlari singari ag'anab yotgan pachoq parvozlarga tikilardi.

Yanglig'.Bu ko'makchi kabi, singari ko'makchilarining sinonimi bo'lib, asosan, ular anglatgan ma'noni anglatadi. O'xshatish, chog'ishtirish, qiyos ma'nolarini anglatadi. Masalan:Yarashmas senga bu yanglig' yurish, kayfu safokorlik.

Sayin. Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni anglatadi.

1. Vaqt bildiruvch so'zlar bilan birga kelib ish harakatning yoki xodisaning muayyan vaqt ichida takrorlanishi yoki muntazam bo'lib turish ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Quvnoq qizning yurakida sevgi kun sayin kuchliroq yolqinlanadi.

2.Sifatdosh bilan birga kelganda ikki ish harakatning bir yo'la sodir bo'lishi va bu harakatdagi davom, izchillik ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Yel borgan sayin kuchlana boshladi.

3. Ish-harakatning ma'lum vaqt orasida sodir bo'lishi ma'nosini ifodalaydi.Masalan:Bu hol kun sayin takrorlanib turadi.

Sari. Bu ko'makchi ish-harakatning obyektga qarab yo'nalishi ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Kolxozchilar yoppasiga yo'l sari otlandilar.

Sababli Bu ko‘makchi sodir bo‘layotgan ish-harakatning boshqa ish-harakatga aloqador ekani, sababini bildiradi. Masalan: Mehribon homiladorligi sababli kampirga qo‘shilib qurt boqdi.

Orqali. Bu ko‘makchi vosita ma‘nosini bildiradi. Masalan: Xatni pochta orqali jo‘natdim.

Tufayli. Bu ko‘makchi ish-harakatning sodir bo‘lishidagi sababni bildiradi. Masalan: Bechora Madamin qaboxatona shubxa tufayli jon talvasasida yotibdi.

Chog‘li. Bu ko‘makchi son miqdor jihatidan chama ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: Biz qishloqdan bir yo‘la qirq chog‘li yigit jo‘natmoqda edik.

Osha. Bu ko‘makchi 1)ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan vaqt davomida sodir bo‘lishi ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: Xalq shoirlari hofizasida bu dostonlar asrlar osha bizning davramizga yetib keldilar. 2) ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan makon bo‘ylab sodir bo‘lishi ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: Yordamlashmoqchi bo‘ldim, ko‘nmagach, chayladan chiqib ko‘l osha uzoq uzoqlarga. . . ko‘z tashladim.

Bo‘ylab. Bu ko‘makchi ish-harakatning ko‘rsatilgan makonda voqe bo‘lgani yoki ma‘lu, vaqt davomida sodir bo‘gani ma‘nosini anglatadi. Masalan: Jahon bo‘ylab yangrar bir ovoz.

Bo‘yicha. Bu ko‘makchi moslik, mutanosiblik shuningdek chegaralash ma‘nosini ham ifodalaydi. Masalan: U direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari.

Ichra. Bu ko‘makchi ish-harakatning bir predmetning ichida sodir bo‘lishi ma‘nosini bildiradi. Masalan: Sinfingni bulg‘atma, chang-to‘zon ichra botma.

Bo‘yicha. Bu ko‘makchi ish-harakatning sodir bo‘lishidagi asos yoki usul ma‘nosini anglatadi: Masalan: Onabibi o‘qituvchi bergan plan bo‘yicha yozma ish yozishdan bosh tortdi.

Bo‘yi. Bu ko‘makchi vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelib, harakat-holatning shu so‘zlar ifodalagan vaqt doirasiga davomligi ma’nosini bildiradi. Masalan. Yo‘l bo‘yi Said Jabayga iltifot ko‘rsatib keldi.

Chamasi. Bu ko‘makchi taxminiy o‘lchov ma’nosini anglatadi. Masalan: Yuz kilogram chamasi paxta terdi.

Haqda, to‘g‘rida. Bu ko‘makchi ham fikr yoki nutq qaratilgan predmetlar ma’nosini anglatadi. Masalan: Gazeta jurnallarga yozilish to‘g‘risida suhbat o‘tkazishdi.

Holda, yo‘sinda. Bu ko‘makchi sifatdosh bilan birga kelib ish-harakatning sodir bo‘lish vaqtidagi holat ma’nosini ifodalaydi. Masalan: Maxdum dovdiragan yo‘sinda Anvar bilan ichkariga kirdi.

Jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan keladigan ko‘makchilar

Tomon, Bu ko‘makchi makon va payt munosabatini ifodalaydi. Masalan: Xayrlashdik-da,men eshik tomon yurdim.

Qadar. Bu ko‘makchi 1) ish-harakatning vaqt jihatidan chegarsi ma’nosini 2) ish-harakatning makon jihatdan chegara ma’nosini 3) ish-harakat yoki xolatning sodir bo‘lishida qatnashuvchilarni imkon boricha qamrash ma’nosini bildiradi. Masalan: Yo‘lchi kechga qadar necha yerga yuk tashib, horg‘in Jo‘ranikiga keldi.

Ko‘ra. Bu ko‘makchi sabab, ayirib ta’kidlab ko‘rsatish, qiyoslash, solishtirish ma’nolarini bildiradi. Masalan: Bu yerda hayron bo‘lib turgandan ko‘ra guzarga borsak qalay bo‘larkan.

Qarshi. Bu ko‘makchi zidlik, modal ma’nolarini anglatadi. Masalan: Baxtga qarshi u hozir xam bor.

Qarab. Bu ko‘makchi harakat yo‘nalgan tomon va asos, miqdor, o‘lchov ma’nolarini ham anglatadi. Masalan: Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil.

Qaraganda. Bu ko‘makchi ayirib ko‘rsatish, ta‘kidlash, shuningdek, qiyos, solishtirish ma‘nosini bildiradi. Masalan: Olmaga qaraganda nok shirin.

Qaramasdan, qaramay. Bu ko‘makchilar to‘siqsizlik ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: Dehqonboy bilan Xafiza ,onalarining qarshiligiga qaramasdan.Mirzacho‘lga ketishga ahd qildilar.

Yarasha. Bu ko‘makchi teng, mos, loyiq, monand ma‘nolarini bildiradi. Masalan: O‘zimizga yarasha to‘ycha qilamiz.

Doir. Bu ko‘makchi aloqadorlik, bog‘lilik ma‘nosini bildiradi. Masalan: Bu kimyoga doir gap.

Asosan. Bu ko‘makchi bir ish-harakatning sodir bo‘lishiga asos, tayanch, manba bo‘lgan obyekt ma‘nosini anglatadi. Masalan: Majlis qabul qilgan qarorga asosan u brigadaga rahbar qilib belgilandi.

Binoan. Bu ko‘makchi bir ish-harakatning sodir bo‘lishiga asos, tayanch, manba bo‘lgan obyekt ma‘nosini anglatadi. Masalan: Boboali eshik og‘a Balxdan bugun kelgan ma‘lumotlarga binoan Darveshali Markazga qarshi harakatini davom ettirajagini qattiy bildirgani...so‘zlandi.

Muvofiq. Bu ko‘makchi bir ish-harakatning sodir bo‘lishiga asos bo‘lgan obyekt ma‘nosini anglatadi. Masalan: Motam marosimiga muvofiq dabdaba bilan Xusayn Bayqaro hozir bo‘ldi.

Qarata. Bu ko‘makchi ish-harakat yo‘nalgan predmet, shaxs, joy, tomon ma‘nolarini ifodalaydi. Masalan: Abdurahmon adolatsizlik oldida boy, mulla, eshon to‘ralarga qarata otilgan xalq toshi edi.

So‘ng. Bu ko‘makchi ish-harakatning tugallanishi bilan bog‘li bo‘lgan vaqt ma‘nosini bildiradi. Masalan: Yo‘lchi buning ma‘nosini bir qancha kundan so‘ng tushundi.

Keyin. Bu ko‘makchi so‘ng ko‘makchising sinonimi bo‘lib, ish-harakatning tugallanishi bilan bog‘li bo‘lgan vaqt ma‘nosini bildiradi.

Masalan: Men bo'lsam terakning uchidagi oftobday gap: hozir borman, birpasdan keyin yo'q.

Boshqa. Bu ko'makchi mustasnoqlik ma'nosini bildiradi. Masalan: Biz o'sha payt yalpiz hididan boshqa narsani ham sezishimiz kerak edi.

Tashqari. Bu ko'makchi ham mustasnoqlik ma'nosini bildiradi. Masalan: Diniy ilmlardan tashqari, riyoziyot, ilmu nujum, mantiq va adabiyot xahakozolarga keng, pishiq ma'lumot kasb etgan edi.

Bo'lak. Bu ko'makchi ham boshqa, tashqari ko'makchilarining sinonimi bo'lib, mustasnoqlik ma'nosini bildiradi. Masalan: Bu uyda to'qqizta o'quvchidan bo'lak, uning egalari ... xam turar edi.

O'zga. Bu ko'makchi ham boshqa, tashqari ko'makchilarining sinonimi bo'lib, mustasnoqlik ma'nosini bildiradi. Masalan: Sendan o'zga jonon ko'rinmas ko'zga.

Beri. Bu ko'makchi payt ma'nosini bildiradi. Bunda u harakatning boshlanish vaqti bilan bog'li bo'lgan ma'lum payt orolig'I ma'nosini ifodalaydi. Masalan: U ertalabdan beri shu narsani uzluksiz takrorlar edi.

Buyon. Bu ko'makchi beri ko'makchisining sinonimi bo'lib, shu ko'makchiga xos ma'noni bildiradi. Masalan: Ikki yildan buyon domdarak yo'q.

Nari(nariga). Ish-harakatning chegarasi yoki darajasini ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan: Kampir yig'lashdan nariga o'tmadi.

Burun. Bu ko'makchi ish va harakatni o'zi birga kelgan so'z anglatgan ish-harakatdan, voqea va bajaruvchi shaxslardan oldin sodir bo'lgani ma'nosini anglatadi. Masalan: Bu yo'lni urushdan burun kolxozchilar qurgan edi.

Ilgari. Bu ko'makchi payt munosabatini bildirib, biror hodisa ish harakatning voqe bo'lishida undan oldin sodir bo'lgan hodisa yoki

payt ma'nosini bildirish uchun qo'llaniladi. Masalan: Sendan ilgari men tarafdorman.

Oldin, Avval. Bu ko'makchilar burun va ilgari ko'makchilariga sinonim bo'lib ular bildirgan ma'nolarni anglatadi. Masalan: Urushdan oldin qurilgan.

Boshlab. Bu ko'makchi ish-harakat yoki hodisaning sodir bo'lishidagi boshlanish vaqtini ifodalaydi. Masalan: 1-sentabrdan boshlab o'qishga boramiz.

Ko'makchi otlar

Ko'makchi otlar o'zlarining material ma'nolarini saqlagan mustaqil so'zlar bo'lishiga qaramay, yordamchi so'zlar kabi gapda turli munosabatlarni bildiruvchi so'zlardir.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidagi ko'makchi otlarni vertikal yo'nalish bildiruvchi (ost, ust), gorizontaal yo'nalish bildiruvchi (old, orqa, yon, ich), va aralash (ham vertikal, ham gorizontaal) yo'nalish bildiruvchi (ora, bosh, o'rta) ko'makchi otlarga ajratish mumkin.

Vertiklar yo'nalish bildiruvchi ko'makchi otlar

Ost. Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (ostiga) ish-harakatni biror predmetga yoki uning ostki qismiga, tomoniga yo'naltirilganini ko'rsatadi: U kulimsiarb yostiq ostiga qo'l yugurtirar ekan, daftarni eng ustidan ikki qo'llab Muqimiya tutdi (S.Abdulla). Juda oxista eshkak urib kelgan qayiq suva chodir bo'lib yopilgan majnuntol ostiga kirdi, to'xtadi (Shuxrat).

Tag. Bu ko'makchi ot ost ko'makchisiga sinonimdir. Qiyos qiling: Ra'no yer tagidan Rahimjonni kuzatdi- Ra'no yer ostidan Rahimjonni kuzatdi.

Ust. Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (ustiga) quydagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi.

Quyosh g'arbga qarab oqqan , guldastalar ustiga qondirilgan oltin hilol alomatlar quyosh nuri bilan ko'zni elitarli darajada yashnar

edilar (A.Qodiriy). Bahor dadasiga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi-yu, yana stol ustiga egildi (Sh.Rashidov).

Gorizontal yo‘nalish bildiruvchi ko‘makchi otlar

Old. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (oldiga) ish-harakatning biror predmetning oldingi qismiga yo‘naltirilganini ifodalaydi: Shu paytda maktab qizlari... Zebining oldiga keldilar, uni o‘rab oldilar(Sh.Rashidov). Men yig‘laganimcha murabbiyning oldiga borib arz qildim (A.Qahhor).

Orqa. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (orqasiga) ish-harakatni biror predmetning orqasiga, qarama-qarshi tomoniga yo‘nalganini ifodalaydi: Mayor stol orqasiga yozilgan xaritani ko‘zdan kechirdi...(H.G‘ulom. Dovuchcha chaynayotgan bola... nariroqqa borib eshik orqasiga berkindi (Said Axmad).

Yon. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (yoniga) ish-harakatning biror predmetning yon tomoniganini ifodalaydi: Oynisa hamkasblari yoniga ming mashaqqatlar bilan yetib keldi (H.G‘ulom). Maxdum mulla Abdurahmonni hovliga kuzatib chiqdi va xayrlashib, Anvarni kutib o‘tirganlar yoniga keldi (A. Qodiriy).

Ich. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (ichiga) ish-harakatning biror predmetning ichiga yo‘nalganini ifodalaydi: To‘raxonov otini qimtib ariqdan o‘tdi va bog‘ ichiga kirib ketdi (Sh.Rashidov)... yirik qor paychalari xizmatkorning kichkina derazasiga urilar, uning siniq oynasidan uy ichiga ham urib kirar edi...(Oybek).

Tomon. Bu ko‘makchi ma‘lum ko‘makchili konstruksiyada sof ko‘makchiga ham aylangan (“jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan keladigan ko‘makchilar”ga qarang).Usta Baxrom shoshib borib, bolasining bosh tomoniga o‘tirdi (M.Ismoiliy). Ertasiga onasi quda tomonga odam yubordi (A.Qahhor).

Aralash (ham vertikal, ham gorizontal) yo‘nalish bildiruvchi ko‘makchi otlar

O‘rta. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (o‘rtasiga) ish-harakatning biror predmetning o‘rtasiga, orasiga, markaziga yo‘nalganini ifodalaydi: Hovlining o‘rtasiga katta stol qo‘yilib stullar terildi(H.G‘ulom). Xola davra o‘rtasiga o‘tirdi-da, sekin so‘zlay boshladi. (A.Qahhor).

Ora. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (orasiga) ish-harakatning biror predmet yoki predmetlarning orasiga yo‘nalganini ifodalaydi: Mudom...muzli va qorli tog‘ar orasiga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi (Sh.Rashidov). Olmaxon kovak orasiga kirib ketdi. Anzirat... daraxt orasiga yashirindi (Oybek).

Bosh. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (boshiga) quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: Samalyot tog‘ boshiga ko‘tarildi. Biz tomonga keladigan suvning boshiga katta to‘g‘on qurilgan.

II BOB. KO‘MAKCHILARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Ko‘makchilarning so‘z birikmalari tarkibidagi sintaktik xususiyatlari

Ma'lumki, so'zning mazmun tomoni undagi leksik va grammatik ma'nolarining birligidan tashkil topadi. Shunday ekan, mustaqil ma'noli so'zlarda ham, yordamchi so'zlarda ham leksik va grammatik ma'no mavjud. Lekin bundan ular mustaqil ma'noli so'zlardagi leksik va Grammatik ma'noga teng xususiyatiga ega degan fikr kelib chiqmaydi. Avvalo, Grammatik ma'no, kategorial ma'no leksik ma'no deyilgan terminlarni aniqlaylik, keyin shu terminlarni yordamchi so'zlarga , jumladan ko'makchilarga qo'llanganda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida fikr yuritamiz.

Grammatik ma'no bir morfologik gruppani tashkil etuvchi hamma so'zlarga xos xususiyatdir. Grammatik ma'no so'zlarga qo'shimcha vositalar qo'shilishi orqali ifodalanadi (so'z o'zgarishi, so'z birikmasining tashkil qilinishi va boshqalar).

Grammatik ma'noga kategoriya ma'nosi ham kiradi. Kategoriya ma'nosi juda keng leksik ma'no bo'lib, predmetlik, belgi, harakat kabilarni o'z ichiga oladi. Otning kategorial ma'nosi predmetni bildirib, son, kelishik qo'shimchalarini olib, substantivlik birikmani yaratilishida seziladi. Grammatik ma'nolar predmet bilan obyektiv olam hodisalari orasidagi munosabat va aloqani aks ettiradi.

Har qaysi so'zning leksik ma'nosi bo'lib, u leksik ma'no bitta so'z turkumiga taalluqli bo'lgan so'zlarning bir-biridan farqini ta'minlaydi. Masalan, ot: qalam, daftar; sifat: oq, qora, va b.

Ko'makchilarda ham kategorial ma'no va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan leksik ma'no mavjuddir. Ko'makchilarning kategorial ma'nosi ularning boshqa bir mustaqil so'zga birikib kelishidir. Ko'makchilar ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratadilar. Ya'ni tobe bo'lakka birikib, o'sha tobe

bo‘lakning hokimbo‘lakka tobelanish munosabatini ta’minlaydi. Ko‘makchilar shu xususiyati bilan mustaqil ma’noli so‘zlardan farqlanadi.

Ko‘makchilar aslida mustaqil ma’noli so‘zlardan kelib chiqishi yuqorida qayd etilgan edi. Lekin ko‘makchilar mustaqil ma’noli so‘zlardan farqli ravishda ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratishda qo‘llanadi. U sintaktik munosabat tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bo‘lgan munosabatining yaratilishida namoyon bo‘ladi.

Ko‘makchilarning leksik ma’nosi o‘zi birikib kelayotgan mustaqil ma’noli so‘zning leksik ma’nosi umumiy yoki xususiy bo‘ladi. Ko‘makchilarning leksik ma’nolari juda xilma-xil bo‘lib, ko‘makchi birikayotgan mustaqil ma’noli so‘zga bog‘liq bo‘ladi. U ma’noli nihoyatda umumiy yoki nihoyatda xususiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, sari tomon, qarab ko‘makchilarining umumiy leksik ma’nosi otlarga birikkandan keyin xarakatning biror nuqtaga yo‘nalishini ifodalashidir. Uchun ko‘makchisining atalganlik ma’nosini ifodalash uning xususiy leksik ma’nosini hisoblanadi. Chunki uchun ko‘makchisidan boshqa ko‘makchi atalganlik ma’nosini bildirmaydi.

Ko‘makchilarning umumiy ma’nosi ularning sinonimlik xususiyati bo‘lib, albatta, har qaysi ko‘makchining o‘ziga xos stilistik ahamiyati ham sezilib turadi. Masalan, sari, olg‘a kabi konstruksiyalardagina ishlatilib, sari ko‘makchisi o‘rnida boshqa bir ko‘makchi yoki Grammatik vositani qo‘llash mumkin emas. Chunki bunday konstruksiya shiorlar yaratilishida tuzilib, undagi komponentlar turg‘un birikma shakliga yaqinlashadi. Ko‘makchilarning bunday xususiyatlariga ham ishning yoritilishi prosessida alohida e’tibor beriladi.

Ko‘makchilarning mustaqil ma’noli so‘zlardan farqi ko‘makchilarda mustaqil leksik ma’no yo‘q ekanligidagina emas, balki ko‘makchilardagi leksik ma’no qandaydir o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ular mustaqil ma’noli so‘zlarga birikkandagina paydo bo‘lishidadir. Masalan, maqsad, sabab otlari maqsadida, sababli morfologik shakllarida ko‘makchi kategoriyasiga o‘tib sofko‘makchilardek grammatik xususiyatga ega bo‘lib, maqsad, sabab ma’nolarini ifodalaydilar: Bu shaharga o‘qish maqsadida kelgan edim. Taniganim va bilganim

sababli unga alohida hurmat bildirdim. Ayrim ko‘makchilar ham mustaqil ma‘noli so‘zlarga birikib, sabab, maqsad ma‘nolarini bildiradilar. Bunday sabab, maqsad ma‘nosi o‘sha ko‘makchining leksik ma‘nosi hisoblanadi: U ko‘p o‘qigani uchun ko‘p biladi (sabab). Siz bilan suhbatlashish uchun keldim (maqsad). va b.

Mustaqil ma‘noli so‘zlar bilan ko‘makchilarning o‘zaro farqlaridan yana bittasi ularning leksik va grammatik ma‘no ifodalashida bilinadi. Mustaqil ma‘noli so‘zlarning asosiy belgisini, ya‘ni ularning leksik ma‘nosini predmet, harakat, belgi, miqdor va shu kabilarni bildirishi, birorta so‘roqqa javob berishi va alohida gap bo‘lagi bo‘lishi tashkil etadi.

Ko‘makchilarga xos asosiy belgi ularning grammatik ma‘nosi, ya‘ni bitta mustaqil so‘zning ikkinchi mustaqil so‘zga tobelanish munosabatini yaratishdir. Ko‘makchilarning grammatik ma‘nosi nihoyatda ustun bo‘lib, uning leksik ma‘nosini aniqlash, sezish keyin bo‘lgani uchun olimlarda ko‘makchilarda leksik ma‘no bo‘lmaydi, degan fikr hukumron bo‘lgan. Bunday nazariy kamchiliklarga ega bo‘lgan fikrning paydo bo‘lishiga asosiy sabab ko‘makchilarning xuddi kelishik qo‘shimchalaridek xususiyatlarga ega bo‘lishi, ya‘ni tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bo‘lgan grammatik munosabatining yaratilishida qo‘llanishidir. Lekin shunga e‘tibor berish kerakki, kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar mantiqan mutlaqo bitta tushuncha deb bo‘lmaydi. Aniqrog‘i, ko‘makchi deganda kelishik qo‘shimchasi, kelishik qo‘shimchasi deyilganda ko‘makchi tushuniladi deb bo‘lmaydi. Chunki kelishik qo‘shimchasi otga qo‘shilib, uning morfologik bir qismi bo‘ladi va relyativ munosabatni yaratadi.

Ko‘makchi esa ot bilan birikma shaklida bo‘lib, relyativ munosabat yaratadi. Kelishik qo‘shimchalari morfema. Ko‘makchilar esa ma‘lum darajada leksik ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlardir.

(Ko‘makchilarning leksik ma‘nosi haqida yuqorida aytilgan). Shuningdek, ko‘makchilar kelishik qo‘shimchalaridan farqli ravishda o‘zlarining so‘z urg‘usiga ega bo‘ladilar. Ko‘makchilar formal jihatdan mustaqil ma‘noli so‘zlarga o‘xshaydilar, ya‘ni ko‘makchilarning morfologik tarkibida egalik va kelishik

qo'shimchalari va so'z yasovchi qo'shimchalarni uchratish mumkin. (sababli, haqda, maqsadida, yanglig' va b.).

Ko'makchilar mustaqil gap bo'lagi bo'la olmaydi. Shunga asoslanibgina ko'makchilar leksik ma'noga ega emas deyish nazariy uncha to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki bunday fikr olg'a surilganda ikkita har xil tushunchani (leksik va grammatik tushunchani) aralashtirib yuboramiz. Mustaqil ma'noli so'zlar ko'makchiga o'tganda uning leksik ma'nosi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, maqsad, sabab otlari maqsadida, sababli shakllarida ko'makchi funksiyasida ishlatilganlarida biri maqsad, biri sabab ma'nolarini anglataveradi. Shuningdek, mustaqil ma'noli so'z ko'makchiga o'tganida o'zi mansub bo'lgan grammatik kategoriyaga xususiyatni yo'qotib, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga befarq bo'lganidek, tobe bo'lakning hokim bo'lakka bo'lgan munosabatini (relyativ munosabatni) ifodalab, tobelanish aloqani ta'minlaydigan grammatik vositaga aylanadi. Lekin ularning mustaqil ma'noli so'zlardan, boshqa so'z turkumidan yordamchi so'zlarga, ko'makchilar turkumiga o'tganini unutmash kerak.

Ayrim ko'makchilar shakl jihatidan ot ko'makchilarga o'xshasalar-da, aslida ularga sof ko'makchilarga xos xususiyat bor. Masalan, qoshida oti mustaqil ma'noli so'z bo'lganida unda predmetlikni ifodalash mavjud bo'ladi. Masalan, quyidagi misolimizda qoshida oti anglatayotgan predmet kimgadir qarashli bo'lgan narsa ekanini bildiradi: Bolaning qoshida gard bor edi. Lekin qoshida funksiyasida ko'makchi funksiyasida qo'llanganda ko'chma ma'no kasb etib, o'zi birikib kelayotgan otning boshqa bir otga bo'lgan grammatik munosabatini bildirib, mustaqil leksik ma'no ifodalash, ya'ni predmetni bildirish xususiyatini yo'qotadi: Restoran qoshida oshxona bor. Bunday konstiruksiyada restoran qoshida – tobe bo'lak, oshxona – hokim bo'lak bo'lib, tobe bo'lak hokim bo'lakning belgisini, xususiyatini, restoran ixtiyorida bo'lgan oshxona ekanini qoshida ko'makchisi bildirmoqda. Shuning uchun ham bunday konstiruksiyada ko'makchi qoshidagi shaklida ishlatilishi ham mumkin. Masalan, restoran qoshidagi oshxona ishlayapti gapidagi ham qoshidagi sifati ko'makchi funksiyasini bajarayotgan yordamchi so'z

bo'lib, restoran otning oshxona otiga bo'lgan grammatik munosabatini ta'minlamoqda. Qoshidagi sifatning bunday grammatik xususiyatiga ega bo'lishida asosiy sabab uning predmetni ifodalash xususiyati yo'qolib, ko'chma ma'no anglata boshlaganidir.

Haqda, haqida, to'g'rida, to'g'risida kabi qator otlar ham xuddi qoshida, qoshidagi ko'makchilaridek grammatik xususiyatga ega bo'ladilarki, biz ularni sof ko'makchilar tariqasida yoritishni lozim topamiz. V.A. Esangaliyeva qozoq tilidagi bunday ko'makchilarni "oraliq ko'makchilar" termini bilan ataydi. Bunday ko'makchilarda sof ko'makchi va ot ko'makchilarga xos xususiyat bolgani uchuni ham o'shanday termin bilan atalgan ular alohida bobda yoritilgan (63).

Biz bunday konstruksiyadagi ko'makchilarni sof ko'makchilar bo'limida yoritishni shuning uchun ham lozim topamizki, qoshida, qoshidagi va boshqa shunga o'xshash qator qo'shimchalarning morfologik shakli ot va sifat turkumlariga taalluqli bo'lsa-da, ularning nutqimizdagi faoliyati va o'rni faqat ko'makchidir.

Hozirgi o'zbek tilidagi ko'makchilarning tarixiy taraqqiyoti o'rganilgandagina uning tub mohiyati ochiladi. Masalan, o'zbek tilining tarixida qo'llangan ko'makchilar bilan hozirgi o'zbek tilida qo'llanayotgan ko'makchilar teng va bir xil deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi ko'makchilarning tarixiy taraqqiyotini o'rganganda o'sha har qaysi ko'makchining tarixan fonetik, Grammatik, semantic o'zgarishi bunday o'zgarishlarning asosiy prinsiplar alohida diqqat-e'tiborda bo'lishi kerak.

O'zbek tili tarixida qo'llangan ko'makchilarning davrlar bo'yicha miqdorini aniq belgilash qiyin. Chunki mustaqil ma'noli so'z ko'makchi funksiyasida ishlatilib, yana mustaqil ma'noda qo'llangan bo'lishi mumkin. Hatto nihoyatda ko'p va qayta-qayta ishlanishiga qaramasdan, hozirgi o'zbek tilida qo'llanayotgan ko'makchilar biror asarda to'lig'icha yoritib berilmagan. Masalan, 1975-yilda nashr qilingan "O'zbek tili grammatikasi" asarida dovur, nisbatan, soyasida, huzurida va boshqa ko'makchilar ko'rilmagan. Shuningdek, A.N.Qononov 1960-yilda nashr qilingan "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili grammatikasi"

(“Grammatika sovremennogo uzbekskogo yazыka”) asarida va muallifning 1965-yilda nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘makchilar” monografiyasida qator ko‘makchilar yoritilmagan: osha, asosan, misol va b.

O‘zbek tili lug‘atlarida ham o‘zbek tilida ishlatilayotgan hamma ko‘makchilar o‘z aksini topmagan. Natijada, o‘zbek tili lug‘atlarida ko‘makchilarning berilishi har xil bo‘lgan. Masalan, 1981-yilda Moskvada nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da boisi, boisidan, sifatida, huzurida kabi so‘zlarning ko‘makchi vazifasida kelishi qayd etilmagan. Lekin mobaynida, asnosida, asno, qarshisiga, qarshisidan, yaqiniga, yaqinidan, yaqinida, uzasida, tepasiga, tepasidan, orqasida, orqasiga, orqasida, maqsadida kabi qator so‘zlarning ko‘makchi funksiyasida kelishini yoritishi to‘g‘ri bo‘lgan. 1959-yilda Moskvada nashr qilingan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da deb, osha va boshqa so‘zlarning ko‘makchi funksiyasida kelishi qayd etilmagan. Bunday kamchiliklar o‘rganilayotgan temaning harakteriga bog‘liq bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning miqdoriga chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, G‘. G‘ulomning asarida uzasida (184. 264₂); Oybek, Shuxrat, R. Chinmirzayev asarlarida misol, misoli (184.467₃) ko‘makchilari uchraydi.

Uzasida, uza ko‘makchilari o‘zbek tili tarixiga taalluqli bo‘lib, hozirgi o‘zbek tili normasiga kirmaydi. Shuningdek, misol, misoli ko‘makchisi hozirgi o‘zbek poeziyasida ba‘zan uchrab, o‘zbek tilining aktiv leksik qatlamida ko‘makchi sifatida katta rol o‘ynamaydi.

Ma‘lumki, vaqtning o‘tishi bilan yangi ko‘makchilar iste‘moldan chiqib ketishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘makchilarni tarixiy taraqqiyot aspektida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Tarixan qo‘llangan sof ko‘makchilar hozirgi turkiy tillarga qiyoslangandagina uning rivojlanish darajasi yanada aniq bo‘ladi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilida ishlatilgan va ishlatilayotgan sof ko‘makchilarni hozirgi chuvash, turkman, qozoq tillarida ishlatilayotgan ko‘makchilarga o‘ri-o‘rni bilan qiyoslab boramiz. Ona tilining vujudga kelishi va asta-sekin rivojlanishi kuzatib borilgan taqdirdagina “ona tilining materiyasi va formasi” tushunarli bo‘ladi, bu esa, birinchidan, uning o‘lik bo‘lib

qolgan formalariga va ikkinchidan, qardosh jonli va o'lik tillarga e'tibor qilmasdan turib, mumkin bo'lmaydi.

2.2.Gap tarkibida ko'makchilarning ishlatilishi

Har bir kelishikning o'z formasi, ma'nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo'nalish kelishigi ot, olmosh, son v otlashgan so'zlarga qo'shilib, ot bilan fe'l orasidagi sintaktik munosabatni ko'rsatadi. Uning asosiy ma'nosi harakatning yo'nalish o'rnini biladirishdir. Bundan tashqari payt, atash, sabab, maqsad ma'nolarini ham ifoda etadi.

O'zbek tilida otlarning boshqa biror so'zga Grammatik aloqasi ko'makchilar orqali ham ifoda etilishi mumkin: pichoqda kesdi-pichoq bilan kesdi. Telefonda gaplashdi- telefon orqali gaplashdi. Bu hol nutqda kelishikli va ko'makchili kontruksiyalar sinonimyasini yuzaga keltiradi: onamga oldim- onam uchun oldi kabi. Kelishik affiklari so'zga son va egalik (agar ular bo'lsa) formalaridan keyin qo'shiladi: kitoblarimga.

Biror predmetning biror shaxs yoki predmetga tegishli, qarashli ekanligini bildirgan kelishik qaratqich kelishik deyiladi. Hozirgi adabiy tilimizda funksional ko'makchilarning mavjudligi, birinchidan ko'makchilarning tarixan mustaqil so'zlardan iborat bo'lganligi va ularning dastlab leksik ma'no anglatganligidan , ikkinchidan esa, bu jarayon tilde hali ham davom etib kelayotganidan dalolat beradi. Bu xil ko'makchilar o'zbek tili tarixi tadqiqotchilarining kuzatish obyekti bo'lgan va mazkur tadqiqotlar natijasi ularning asosan fe'l, ot, ravish, ravishdosh singari mustaqil so'z turkumlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

Funksional ko'makchilarning sof ko'makchilardan ajralib turadigan xususiyati ularning hozirgi o'zbek adabiy tilida, bir tomondan o'zining dastlabki

leksik ma'nolarini saqlab kelayotganligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, gapning shakllanishida ma'lum grammatik vazifalarni bajarishi bilan bog'liq. Shu bois funksional ko'makchilarga nisbatan "Mustaqil yordamchi so'zlar" atamasi qo'llangan³. Sof ko'makchilar funksiyasi morfologik jihatdan o'zgarmasligi, alohida urg'uga ega emasligi, mustaqil so'zlarsiz qo'llana olmasligi bilan, qisman qo'shimchalarga (kelishik affikslariga) o'xshasa-da, yakka holda qo'llana olishi bilan mustaqil so'zlarga yaqin turadi. Shunday ekan, ularni mustaqil-yordamchi so'zlar deb atab, sof yordamchi so'zlar vas of mustaqil so'zlar orasida oraliq o'rinni egallashini ta'kidlash joiz.

Mustaqil va sof yordamchi so'zlar orasidagi munosabatlarni oraliqdagi uchinchi-mustaqil-yordamchi so'zlarsiz aniqlash qiyin. Shu bois yordamchi so'zlarni hech qanday mustanosiz yoki qo'shimchalar, yoki so'zlar tarkibiga kiritish bir tomonlama fikrdir, chunki yordamchi so'z turkumlarida ularni qo'shimchalar bilan yaqinlashtiruvchi elementlar ham, mustaqil so'zlar bilan yaqinlashtiruvchi elementlar ham mavjud.

Oraliqdagi uchinchi so'zlarning til tizimidagi o'rni juda katta: Ular til tuzulmaviy taraqqiyotining natijasi bo'lib, til tizimining uzluksizligini (tildagi turli xususiyatlarga ega bo'lga elemenlarning uzluksiz ravishda bir-biri bilan bog'lanishini) ta'minlaydi.

Darhaqiqat, ko'makchilarning funksional ko'makchilar deb ataladigan ma'lum qismi mustaqil va yordamchi so'zlar oralig'ida ekanligi ham bu qarashlarning chuqur ilmiy asosga ega ekanligidan dalolat beradi.

Biz yuqorida payt munosabatini bildiruvchi ayrim funksional ko'makchilarning dastlabki xususiyatini e'tibordan qochirmagan holda, ularning ikkinchi xususiyati-ko'makchilik vazifasini bajarishdagi o'ziga xosligi, uslubiy xususiyatlariga to'xtaldik, xolos.

³ X.Неъматов. ХИ-ХИИ асп ёзма ёдгорликларида кўмакчилар// Ўзбек тили грамматик курилиши, лексикология ва диалекталогияси масалалари. В чиқиши. Самарқанд: СамДУ нашри, 1976. 45-б.

Umuman, tilimizda payt munosabatini bildiruvchi funksional ko‘makchilar anchagina.

Masalan, avval so‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 4 ma‘nosi berilgan bo‘lib, u faqat to‘rtinchi ma‘nosidagina ko‘makchidir (bosh kelishik va chiqish kelishigi bilan). Biroz voqea, hodisa yoki harakatning boshqasidan yoki shu haqda so‘z borayotgan vaqtdan oldin bo‘lganligini bildiradi. Uchrashuvdan avval. Bundan to‘rt yil avval. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dab u so‘zning sinonimik qatoriga ilgari, oldin, burun, qadim so‘zlari kiritilgan. A.Xojiyev bu birliklarning mustaqil va yordamchi ma‘nolarini farqlagan: “Avval, ilgari, oldin, burun so‘zlari chiqish kelishigidagi yoki vaqt bildiruvchi so‘zni boshqarib, ko‘makchi so‘z vazifasida qo‘llanadi va harakat-hodisaning chiqish kelishigidagi so‘z bildirgan narsa hodisagacha bo‘lgan vaqtga oidligini bildiradi. Bunda ularga muqaddam so‘zi ham sinonim bo‘ladi.”⁴

Sinonim qatordagi so‘zlarga uslub talabi nuqtai nazaridan qaraganda ham A.Xojiyevning quyidagi fikrlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Avval, oldin so‘zlari kontekst yoki boshqa biror vosita yordamisiz o‘tmish ma‘nosini aniq ifodalay olmaydi. Ilgari, burun, qadim so‘zlari esa o‘tmish ma‘nosini aniq ifodalay oladi. Ilgari so‘zi, ko‘pincha, avval, oldin so‘zlariga nisbatan uzoqroq o‘tmishni ifodalash uchun qo‘llanadi. Oldin ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. Burun so‘zi ilgari so‘ziga nisbatan ham uzoqroq o‘tmishni bildiradi. Lekin ilgari, avval, oldin so‘zlariga nisbatan kam qo‘llanadi. Qadim so‘zi burun so‘ziga nisbatan ham uzoq o‘tmishni bildiradi”. Darhaqiqat, quyidagi misollarda bu ko‘makchi bayon etilayotgan hodisa voqeadan oldin bo‘lganini ma‘lum qilish uchun ishlatiladi: Lekin uni bag‘ringa bosishdan avval, temir kishanlarni ko‘zimga surtdim! (Zulfiya). Mavlono Fazliddin devor tepasidagi xatarga Xonzoda begim hammadan avval ro‘baro‘ bo‘lishidan qo‘rqdi-yu, zinapoyaga birinchi bo‘lib qadam qo‘ydi (P.Qodirova). Oldin ko‘makchisi orqali esa bo‘lib o‘tgan voqea hodisaning vaqt nuqtai nazaridan mavhumligi ifoda etiladi:

⁴ A.Xojiyev. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, 1974. 9-б.

Ular hali biror marta hamsuhbat bo‘lmaslaridan va ruhan yaqinlashishga ulgurmaslaridan oldin boshlangan jismoniy yaqinlik Boburga uyat ishdek va uning ilgari musaffo tuyg‘ularini poymol qilayotganday bo‘lardi (P.Qodirov).

“O‘zbek tili grammatikasi”da oldin/avval, burun, ilgari ko‘makchi sharhi berilgan. Jumladan, unda quyidagilar qayd etilgan: “Oldin/avval. Bu ko‘makchi burun va ilgari ko‘makchilariga sinonim bo‘lib, ular bildirgan ma‘nolarini anglatadi: Urushdan oldin (avval/ burun/ ilgari) qurilgan. Burun ko‘makchi ish va harakatni o‘zi birga kelgan so‘z anglatgan ish-harakatdan, voqea va bajaruvchi shaxslardan oldin sodir bo‘gani ma‘nosini anglatadi: Tansiq o‘z ishini hammadan burun bajarib uyga qaytdi (Oybek). Ilgari. Bu ko‘makchi payt munosabatini bildirib, biror hodisa, ish-harakatning voqe bo‘lishida undan sodir bo‘lgan hodisa yoki vaqt ma‘nosini bildirish uchun qo‘llanadi. Quyidagi so‘zlar bilan munosabatga kirishadi: Ot va olmoshlar bilan keladi: bu korxayr. Sendan ilgari men tarafdorman (Oybek). Vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan keladi: Bundan o‘n besh kuncha ilgari Kumush onasiga bir xat yozga edi (A.Qodiriy). Fe‘l shakllari bilan keladi: Amrga e’tiroz etishdan ilgari shu to‘g‘rida javob bersangiz (A.Qodiriy).⁶

T.Qurbonov va N.Ernazarovlar avval ko‘makchi sifatida bosh yoki chiqish kelishigidagi ot, otlashgan so‘zlarni boshqarib, ularning hokim bo‘lakka tobelanishini ko‘rsatuvchi, shu ma‘noda unga ilgari, burun, muqadam, oldin, qadim kabi so‘zlar sinonim bo‘lib kela olishi, ular uchun umumiy bo‘lgan ma‘no xususiyati – voqea - hodisa yoki ish - harakatning o‘tgan vaqtda,, hozirga qadar sodir bo‘lganligini anglatish ekanligi, ammo ular hamma vaqt ham funksiyadoshlik qilavermasligini ta’kidlaydilar. Ular, shuningdek, oldin so‘zi avval ko‘makchisining asosan og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos sinonimi hisoblanishi, o‘zbek folklori asarlari tilida esa avvalning sinonimi sifatida qadim so‘zi ko‘plab qo‘llanishini ta’kidlaydilar.⁵

Yuqoridagi fikrlarga quyidagilarni qo‘shimcha qilish mumkin: dominantasi avval so‘zi bo‘lgan sinonimik qatordagi so‘zlarning o‘rnini bermalol almashtirib

⁵ Т.Қурбонов, Н.Ерназаров. Ёрдамчи сўзлар стилистикасига доир // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. Илмий тўплам. Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. 77-81-б. ⁵

qo‘llash mumkin va bunda deyarli mazmunga putur yetmaydi. Ular orasida faqat ilgari so‘zi bo‘g‘inlar soniga ko‘ra ulardan farqlanadi va buning she‘riy asarlar uchun ahamiyati bor: Turkman qiz quyoshdan turib ilgari, ko‘tarma kranda yuksak uylarni (Zulfiya) – Turkman qiz quyoshdan turib avval ko‘tarma kranda yuksak uylarni... Hatto tomchisidan ilgari kelib, terib olajakmiz har ko‘sak durni! (Zulfiya) –Hatto tomchisidan avval kelib, terib olajakmiz har ko‘sak durni!

Bu holat avval so‘zining rasmiy va ilmiy uslublar doirasida ham faol qo‘llanishiga asos bo‘ladi: Ilmiy unvon berish haqidagi qaror o‘n yildan ko‘proq vaqt oldin qabul qilingan bo‘lsa, uning qanchalik asoslanganligi xususidagi masalani atetsatsiya organlari ko‘rib chiqmaydi (OAK Nizomi)

Ilgari so‘zi kitobiy uslublarda faol: Kengash majlisini ochish oldidan “Ilmiy darajalar berish tarkibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq ilgari tuzilgan komissiya xulosasining loyihalari kengash a‘zolariga tarqatiladi (OAK Nizomi).

Ammo burun, muqaddam va qadim so‘zlarining hozirgi adabiy tilimizda qo‘llanish doirasi bir qadar chegaralanib qolganligi, asosan badiiy matnlarda ishlatilayotgani kuzatiladi: Bundan uch kun burun naqshbandiy darvishlaridan biri Zuxra begim Shayboniyxondan maxfiy bir xat keltirib berga edi (P.Qodirov). G‘ani Murodov ikki yil muqaddam otpuska olib va shu bilan birga maktabdan ham bo‘shab ketgan edi (P.Tursun). Nimadir qalbimni uyg‘otib, bahordan ilgari, qo‘zg‘atar vulqonday sevinchbaxsh ilhomlar (Zulfiya). Shu bilan birga huquqshunoslar avval o‘rniga muqaddamni qo‘llashni afzal ko‘rishdi.. Bundan muqaddam sudlanmagan (tergov bayonnomasidan). Qabriston bundan o‘n yillar muqaddam to‘lganligi uchun marhumlar dafn etilmay qo‘yilgandi shu sababli bu tomonga odamlar kam qatnar edi (I.Nishonov).

Avvalga boshda so‘zining ham ko‘makchi sifatida sinonim bo‘la olishi mumkinligi uning nutqiy qamrov ko‘lamini yana kengaytiradi: Kalavalanmasdan, boshda shu gapni ayta qolsang bo‘lmaydimi! (So‘zlashuvdan) Xalq tilida avval boshdan degan jumlaning qo‘llanishi ham ularning o‘zaro sinonim bo‘la olishini tasdiqlovchi dalildir.

Vaqt ma'nosini o'rni kelganda, shuningdek, beri, buyon, boshlab (uch kundan beri, ertalabdan buyon, bugundan boshlab), bo'yi, mobaynida, davomida, osha (kun bo'yi, yil mobaynida, hafta davomida, asrlar osha), keyin, so'ng (tushdan keyin, uch kundan so'ng), ora, vaqt, ichida, yaqin (bu orada, har vaqt, bir yil ichida, ikki oyga yaqin) funksional ko'makchilari orqali ham anglatish hollari kuzatiladi.

III BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHININGNING AMALIYOTGA TADBIQI

3.1. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan sinf o'quvchilariga ko'makchilarni o'rgatishning zamonaviy usullari

Bugungi zamonaviy ta'lim, ilg'or pedagogik texnologiya, yangi ruhdagi va mazmundagi pedagogik tafakkur taraqqiyparvar fikr-g'oyalarning mahsulidir.

Ona tili darslarida o'quvchilarning aqliy rivojlanishlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirib borishga asos yaratadi. Bu davrda bolaga to'g'ri ta'sir ko'sata olish, ta'limda uning rivojlanish jarayonini oqilona tashkil etish va nazorat qilish zamonaviy ta'limning bosh yondoshishlaridandir. Beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy dunyosini o'stirib rivojlantirib borish-ta'limda bolaning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko'rinishlaridan biri. Buning uchun kichik yoshdan boshlab beriladigan bilimlar vositasida bolalarni tabiat, jamiyat, insoniyat olamiga olib kirish, u bilan bog'lash, hamnafas etish, u yoki bu hodisa, holatlarga o'z munosabatini shakllantirib borishga yordam berish, shuningdek bolalarga burch, ma'suliyat, qadr-qimmat ruhini, o'z-o'zini anglash, atrofini o'rab turuvchi tabiatni, odamlarni, boshqa millat-elatlarni, ularning madaniyati, etiqodini hurmat qilish, o'z nuqtai-nazariga ega bo'lish, o'zgarar fikriga diqqat qilish va hurmat qila olish, muhokama-munozara qila olish madaniyati, umuman dunyoni teran anglash, ma'naviy-ruhiy olamini boyitib borishga va o'z "MEN"ini namoyon qila olishga poydevor qo'yilishi kerak.

Qoraqalpoq sinflarida o‘zbek tili o‘rta maktablarning 5 –, 9 - sinflarida davlat tili sifatida o‘qitiladi. Qoraqalpoq tili ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lganligi sababli tillarning o‘zaro o‘xshash va yaqin jihatlari ko‘p.

Boshqa tillarni o‘rganish o‘z ona tili vositasida yuzaga kelishi ma`lum. Qoraqalpoq o‘quvchilari o‘z ona tilida ko‘makchilar haqida ma`lum darajada bilimga ega bo‘ladilar. Ko‘makchilar qoraqalpoq tilida tirkeo‘ishler termini bilan yuritiladi. Qoraqalpoq tili morfologiyasi kitobida tirkewishler kelib chiqishi jihatidan 3 ga bo‘linadi: 1) tupkilikli tirkewishler 2) atawish tirkewishler; 3) feyil tirkewishler⁶.

Keyingi darslik va qo‘llanmalarda tirkewishler 2 turga ajratilgan. Bular: tupkilikli tirkewishler hamda funktsional tirkewishler. Bu jihatdan o‘zbek tilidagi ko‘makchilarga o‘xshaydi. O‘zbek tili bo‘yicha namunaviy rejada ko‘makchilarni turli sinflarda o‘rganish uchun 11 soat ajratilgan.

Bugungi maktab o‘quvchilari kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z vatani va xalqini jon-dildan sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish, har bir bolaga individual yondoshuv asosiy maqsadlardan biridir.

Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Texnologiya so‘zi yunoncha bo‘lib texnik-mahorat, sanoat; logos-tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Bu so‘z sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qollanadigan usul va metodlar yig‘indisini bildiradi.

Ta’lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha, o‘qish (o‘quvchi faoliyati) va o‘qitish (o‘qituvchi faoliyati)ning o‘zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish; ta’lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni

⁶ Хэзирги қарақалпақ тили. -Нөкис, Қарақалпақстан, 1974. –Б.239.

muvofiglashtirish, ularning ketma - ketligini va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlarni va amallarni birdek talab darajasida bajarishni anglatadi.

Pedagogika amaliyotida qo'llanadigan ta'lim texnologiyasi so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, bizning amaliyotimizga yangi pedagogik texnologiya atamasi bilan kirib keldi. Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondoshuvga asoslanadi. Bu ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshuv demakdir.

Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini milliy tarbiyashunoslikka har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati amaliyotda, xususan, adabiy ta'limda bola shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, unga ta'lim jarayoning ob'ekti emas, sub'ekti sifatida yondoshish, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bolada bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish, adabiy ta'lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalari va xatti-harakatlariga qarab, ularning shaxsini baholashga o'rgatish demakdir. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning vazifalari hali mukammal darajada aniqlangan emas. Mazkur texnologiyalar sirasiga kiruvchi "interfaol metodlar"ni ham amaldagi "muammoli ta'lim" metodining bir ko'rinishi deyish mumkin. Bu metodning asosiy xususiyati o'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirishdir.

“Masalan sinfdagi o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e‘lon qilinib, vaqt belgilanadi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan bahslashadilar. Mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o‘qituvchi guruh a‘zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u mavzu yuzasidan o‘z guruhining chiqargan xulosalarini guruhning yangi a‘zolariga tusuntiradi. Yangi guruh a‘zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o‘rganish va unga o‘z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig‘ida o‘quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan fikrlar bildiriladi, xulosalar chiqariladi, hamda fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi ”⁷.

Sinfdagi o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib ishlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

1. Guruhlar o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi.
 2. Guruhga rahbarlik qiladigan o‘quvchi tayinlanadi.
 3. Har bir guruhda zehni va qobiliyatli o‘quvchilar bo‘lishiga, bo‘shroq o‘zlastiradigan o‘quvchilarni ham guruhlariga imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a‘zolar bilan to‘ldiriladi va vazifalari belgilanadi.
 4. Guruh rahbari va a‘zolarining vazifalari tushuntiriladi.
 5. Har bir guruh doira shaklida o‘tirishi, uning har bir a‘zosi bir-birini ko‘rib turishi shart.
 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g‘oyalari e‘tibor berib boriladi. Yaxshi g‘oya egalari rag‘batlantiriladi.
- Sinfdan bunday guruhlarini tashkil etishdan maqsad dars davomida quyidagilarni ham nazarda tutadi:
- O‘quvchilarning shu ishni bajarishlari uchun bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish;

⁷ Q. Husanboeva. “Ta‘limning zamonaviy texnologiyalari va mustaqil fikrlash”. Til va adabiyot ta‘limi. 2003-yil. 3-son 7-12-betlar.

- Guruhlarga aniq yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish;
- Vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish;
- O‘z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta‘minlash;
- Qo‘yiladigan masala murakkab bo‘lganida guruhlarni kamaytirib, guruh a‘zolari sonini ko‘paytirish;
- Baholash va mukofotlash guruh a‘zolarining faolligiga ta‘sir etishini ko‘zda tutish;
- Kuchli guruhlarni mukofotlash;
- Bajarilgan ish natijasini baholash va baholarni e‘lon qilish;
- Jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida “interfaol metodlar” nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri bo‘lgan aqliy hujumning maqsadi o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma‘lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondoshuvni ta‘minlashdan iborat Amerikalik mutaxassis A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bu metodda o‘quvchilar oldiga ulardan aqliy zo‘riqishni talab qiladigan muayyan bir masala qo‘yiladi. Shu masala bo‘yicha ishlayotgan har bir o‘quvchi tomonidan ilgari surilgan fikrni rag‘batlantirish va qayd qilib borish, ishtirokchilarning erkinligini ta‘minlash, bildirilgan fikrlar asoslanishini talab qilish, bahs davomida birorta fikrni e‘tiborsiz qoldirmaslik talab etiladi. O‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarga e‘tiborsizlik bilan qarash ularni tanqid qilish yoki fikrlaridan kulish taqiqlanadi.

Aqliy hujum- o‘quv muammolarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib, u qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yonaltirilgan. Mazkur metod o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har qanday muammoli masalaga ko‘p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

“Aqliy hujumdan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O‘ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar bu jarayondagi g‘oyalar baholanadigan bo‘lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo‘liga tushadilar va o‘z fikr-g‘oyalarini himoya qilishga urg‘u beradilar. Yangi fikrlar, yangi kashfiyotlar to‘g‘risida o‘ylamay qo‘yadilar.

2. Har bir o‘quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g‘oyalar tug‘ilmasa, qatnashchilar o‘z fikrini qayta qo‘llashga, bir-birini takrorlashga majbur bo‘ladilar.

3. Qatnashchilarning o‘z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratish kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g‘oyalar tug‘iladi.

4. Har bir o‘quvchi o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug‘iladi”⁸.

Aqliy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilar erkin o‘tiradigan qilib joylashtiriladi.

2. O‘quvchilarning g‘oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo‘yiladi.

3. Hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar aniqlanadi.

4. Ish jarayoni belgilab olinib, o‘qituvchi “Ilg‘ab oling, g‘oyalarga asoslaning, qo‘shing, kengaytiring, o‘zgartiring” kabi luqmalar orqali bahs-munozarani boshqarib turadi.

5. Qo‘yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.

6. O‘zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali so‘zlarga aslo yo‘l qo‘yilmaydi.

⁸ Q. Husanboeva. “O‘qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta‘lim”. Til va adabiyot ta‘limi. 2003-yil. 2-son 17-bet.

7. Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi.

8. G'oyalar tugamagunicha ish davom ettirilaveradi.

9. Barcha fikr va g'oyalar tinglangach yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi va baholanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ilg'or pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo'llanilishi, avvalo o'quvchida darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan, faol, bilimli shaxsni kamol toptiradi, qolaversa ta'lim mazmunini yangilaydi. Yangi zamon o'qituvchisi o'z mehnati jarayonida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqib, ilg'or usullarni o'z darslarida qo'llay olishi zarur.

Maktabda ishlayotgan ona tili o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatini, ularni darsda qanday qo'llash usullarini puxta egallab olishi kerak. Ilg'or pedagogik usullarda quyidagi ish turlaridan foydalanishi mumkin:

- Klaster usuli;
- Tayanch so'z asosida so'zlar tanlash mahorati;
- "Tarixiy xotiralar tuzish";
- "Jamo'a insho"sini o'tkazish;
- So'z o'yini;
- Videofilmlardan foydalanish;
- Interfaol usullardan foydalanish;
- Ota-onalar bilan hamkorlik;
- Didaktik o'yin vositasi va boshqalar.

3.2.Ochiq dars ishlanma

Fan: O‘zbek tili

Sinf:8-sinf

Mavzu: Tarixiy shaharlarga sayohat

Grammatika:Tomon, qarab, bo‘ylab, ko‘ra, haqida, to‘g‘risida ko‘makchilarining qo‘llanilisi.

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsadi: O‘quvchilarga tomon, qarab, bo‘ylab, ko‘ra, haqida, to‘g‘risida ko‘makchilarining qo‘llanilishi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsadi: O‘quvchilarni tarixiy shaharlarimizga nisbatan g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, fikrlash doirasini kengaytirish

Dars turi:Yangi tushuncha va bilimlarni hosil qilish

Darsning jihozi: darslik, kompyuter, slaydlar, ko‘rgazmalar, proyektor, rag‘bat va jarima kartochkalari, tarqatmalar.

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Aqliy hujum”, “ Savol javob”, “Ball to‘playmiz”, “Suhbat”

Dars rejasi:

T/r	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Salomlashish. Davomatni aniqlash.Tozalikni tekshirish.	2 daqiqa
2.	Uyga vazifani so‘rash. “Ball to‘playmiz” usulida.	10 daqiqa
4.	Yangi mavzuni bayoni	11 daqiqa
5.	Mustahkamlash.	20 daqiqa
6.	Baholash.	1 daqiqa

7.	Uyga vazifa berish.	1 daqiqa
----	---------------------	----------

Darsning borishi


I.Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) tozalikni tekshirish;

II.Uyga vazifani so‘rash: o‘quvchilar 2 guruhga ajratiladi, “Zukkolar” va “Bilimdolar” deb nomlanadi nomlanadi. O‘tgan mavzuni takrorlash uchun “Ball to‘playmiz” o‘yinidan foydalanamiz. Bunda monitorda ballar ortiga yashiringan savolga o‘quvchilar javob berishi kerak. O‘quvchilar ball to‘playdilar to‘plagan ballariga qarab jetonlar beriladi. Shunga qarab guruhlar baholanadi. O‘tilgan mavzu ”Sirli olam.Qo‘shma fe’llar va ularning tuzilishi” mavzusida savol - javob qilinadi.

1. Fe’l deb nimaga aytiladi? (10)
2. Fe’lning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang. (20)
3. Sirli hodisalardan nimalarni bilasiz? (30)
4. Qo‘shma fe’l deb nimaga aytiladi? (40)
5. Sodda fe’l deb nimaga aytiladi. (50)
6. Juft fe’l deb nimaga aytiladi? (60)
7. Qo‘shma fe’lga misol keltiring. (70)
8. Sodda va juft fe’lga misol keltiring. (80)
9. Eng kata va eng kichik sayyora qaysi? (90)
10. Takror fe’lni qatnashtirib gap tuzing. (100)
11. Sayyoralarni sanab bering. (110)
12. Qayerda bir oy davomida tunlar ham yorug‘ bo‘ladi? (120)

10	20	30	40
50	60	70	80
90	100	110	120

Yangi mavzu bayoni: Ekranda tarixiy shaharlarning rasmlar qo'yiladi. Siz ushbu shaharlarni taniysizmi? savoli qo'yiladi.





Matn o'quvchilarga o'qib beriladi va suhbat quriladi.

Tarixiy shaharlarga sayohat

Biz yashayotgan zamin ikki daryo oralig‘i ya’ni Movaraunnahr deb ataladi. O‘zbekiston Amudaryo va Sirdaryo, yashil vodiylari va qadimiy shaharlari bilan jahonga mashhur. Arxeologik qazilmalar O‘rta Osiyo insoniyat beshiklaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuni aniqlash maqsadida bir qancha xalqaro ekspeditsiyalar ham tashkil etilgan. O‘zbekistondagi Dalvarzin tepaligi, Afrosiyob qoldiqlari (qadimgi Samarqand), Shahrisabzda olib borilgan tadqiqotlar natijalari buni isbotladi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz, Farg‘ona kabi shaharlarni ko‘rish maqsadida har yili ko‘plab sayyohlar kelishadi. Ularning maqsadi — ushbu shaharlar tarixi bilan tanishish, ulardagi qadimiy obidalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishdir.

Tarixiy shaharlarimizga Samarqand, Buxoro, Xiva kiradi. Samarqand shahriga 2750 yil to‘ldi. Ulug‘ bobomiz Amir Temur qurdirgan inshootlar bizgacha yetib kelgan. Buxoro o‘zining madrasa-yu, binoralari bilan mashhur u “Ikkinchi Madina” nomini olgan. Bu shaharga 2500 yilni qarshiladi. Xiva o‘zining Ichanqal’asi bilan dunyoga mashhur. Bu shahar ham Buxoro bilan tengdosh.

Toshkent – qadimiy va navqiron shahar. Bizning jonajon poytaxtimiz. Oldinlari “Choch”, “Shosh”, “Non shahri”, “Madinat ash-Shosh” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Hozirda ko‘zni quvontiradigan darajada o‘zgarib, go‘zallashib ketdi.

Grammatika

Ot, olmosh, harakat nomi vasifatdoshlardan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiladigan so‘zlarga ko‘makchi deyiladi. Ko‘makchilar vazifasiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. 1. Sof ko‘makchilar: bilan, sari, sayin, uchun, kabi, singari, asosan, binoan, ko‘ra, tufayli, haqida 2. Vazifadosh ko‘makchilar: ost, orqa, ro‘para, deb, tomon, bo‘ylab, qarab, avval, keyin, so‘ng. Tomon, qarab, bo‘ylab ko‘makchilari yo‘nalishni ifodalovchi ko‘makchilar bo‘lib, ular bosh kelishik va jo‘nalish kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadi va o‘zaro sintaktik-sinonimik konstruksiyalarni hosil qiladi. Masalan: Ular Samarqand tomon ketishdi. –Ular Samarqandga qarab keyishdi.

№	Ko‘makchilarning ma‘no turlari	Ko‘makchilar	Misollar
1	Sabab ma‘nosi	sababli, tufayli, uchun	Kasalligi sababli kelmadi.
2	Yo‘nalish ma‘nosi	tomon, bo‘ylab, qarab, sari	Daryo tomon yurib borardi
3	Fikr mavzusi ma‘nosi	haqida, to‘g‘risida	Salomatlik haqida ko‘rsatuv bo‘ldi
4	O‘xshatish ma‘nosi	kabi, singari	Tovus kabi tovlanardi
5	Isbotlash, asos ma‘nosini	ko‘ra, asosan, binoan	Qonunga ko‘ra ish ko‘rdi.

IV Yangi mavzuni mustahkamlash. Mustahkamlash uchun mashqlar guruhlarda bajariladi.

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos ko‘makchilarni qo‘ying.

1. Bolalar sohil ... ketishdi. 2. Mashina kata ko‘chaga ... yurdi. 3. Kuz ... juda ko‘p she‘rlar yozilgan. 4. Ikki jamoa ikki ... bo‘linishdi. 5. Sayyohlar tez yurar poyezdlarda Samarqand ... ketishdi. 6. Shoirlar Samarqand ... ko‘p yozishgan.

Namuna: Bolalar sohil bo‘ylab ketishdi

Foydalanish uchun so‘zlar: qarab, bo‘ylab, haqida, tomonga, to‘g‘risida, tomonga, ko‘ra

7. Tarixiy ma‘lumotlarga ..., Buxoro yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri.

2-mashq. Matnni o‘qing. Ko‘makchilarni aniqlang. Ma‘no turini aniqlang.

Xiva — afsonaviy shahar. U O‘zbekistonning shimol qismida, Xorazm vohasida joylashgan eng qadimiy shaharlardan biri. Rasmiy hujjatlarga ko‘ra shaharning

tashkil topgan sanasi XVII asr hisoblanadi. Xiva qadimiy yodgorliklari, muhtasham binolari yaxshi saqlangan noyob muzey shahardir. Shaharning markazida O'rta Osiyodagi eng qadimiy inshootlardan biri — ko'p ustunli Juma masjidi qad ko'tarib turibdi. Ichan qa'la nomi bilan mashhur qadamiy Xiva yodgorligi hozirgi zamonaviy shahar o'rtasida jonli muzey bo'lib turibdi. Ushbu muzey-shaharni ko'rgani har yili dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yuz minglab sayyohlar tarixiy yodgorliklarni zavq bilan tomosha qiladilar.

V.Darsga yakun yasash va xulosalash. G'olib guruhlar aniqlanadi. Darsdagi eng faol o'quvchi aniqlanadi va baholaniladi.

VI. Uyga vazifa: She'r ifodali o'qib beriladi. She'rni yod olish

Buxoroda

Yashirin ko'p sir-u asror Buxoroda,
Qo'msab yana, bo'ldim takror Buxoroda.
Labi Hovuz, Sitorayi Mohi Xosa,
Bag'ridan hech ketmas bahor Buxoroda.
Faqatgina laylak emas, quchog'ingda,
Tovuslaring o'z o'rni bor Buxoroda
G'ijdivoniy, Naqshbandiy, Buxoriydek
Ne –ne buyuk zotlar bisyor Buxoroda.
Minorayi Kalon, Ark-u Somoniylar-
Yodgorliklar – boqiy me'mor Buxoroda.

XULOSA

Ta'lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob izlash bilan shug'ullanadilar va hali-hamon bu savolga to'liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo'q. Ta'lim mazmuni bo'yicha berilgan va berilayotgan barcha ma'lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boradi.

Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Ona tili o'qitish mazmuni- fonetik, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

Ona tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat.

Ot yoki otlashgan so'zlarga qo'shilib, sintaktik munosabat ko'rsatish uchun hizmat qiladigan Grammatik fomalar sistemasiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi olti Grammatik ma'no yoki kelishikni birlashtiradi. Bosh kelishik, qaratqich kelishik,

tushum kelishik, jo‘nalish kelishik, o‘rin kelishik (o‘rin-payt kelishik emas. Chunki payt ma‘nosi uchala kelishikda ham bor), chiqish kelishik.

Kelishiklar ifoda qiladigan munosabatlarning umumlashgan ma‘nosini so‘zlar paradigmasida emas, so‘z birikmasida shakllanadi, ya‘ni binday ma‘nolar singmatik harakterda bo‘ladi.

Otlarning kelishik formalari bilan o‘zgarishi turlanish, kelishik affikslari turlovchi affikslar deb yuritiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ona tili jarayonida otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, narsa –buyumning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini bildirishi, yozilishi, qoshimcha qo‘shilganda otlarning o‘zak-negizida tovuxh o‘zgarishi (tilak-tilagi, qirg‘oq-qirg‘og‘i...), ikkinchi bo‘g‘inidagi a, I yoki u tushub qolishi (shahar-shaharim, qorin-qorni, burun-burni...) hodisalari haqidagi bilimlar yordamida mustahkamlanadi.

Bugungi maktab o‘quvchilari kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z vatani va xalqini jon-dildan sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish, har bir bolaga individual yondoshuv asosiy maqsadlardan biridir.

Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Texnologiya so‘zi yunoncha bo‘lib texne-mahorat, sanoat; logos-tushuncha, ta‘limot ma‘nolarini anglatadi. Bu so‘z sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qollanadigan usul va metodlar yig‘indisini bildiradi.

Ta‘lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha, o‘qish (o‘quvchi faoliyati) va o‘qitish (o‘qituvchi faoliyati)ning o‘zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish; ta‘lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligini va bosqichma-

bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlarni va amallarni birdek talab darajasida bajarishni anglatadi.

Pedagogika amaliyotida qo'llanadigan ta'lim texnologiyasi so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, bizning amaliyotimizga yangi pedagogik texnologiya atamasi bilan kirib keldi. Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondoshuvga asoslanadi. Bu ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshuv demakdir.

Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini milliy tarbiyashunoslikka har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati amaliyotda, xususan, adabiy ta'limda bola shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, unga ta'lim jarayoning ob'ekti emas, sub'ekti sifatida yondoshish, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bolada bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish, adabiy ta'lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalari va xatti-harakatlariga qarab, ularning shaxsini baholashga o'rgatish demakdir. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning vazifalari hali mukammal darajada aniqlangan emas. Mazkur texnologiyalar sirasiga kiruvchi "interfaol metodlar"ni ham amaldagi "muammoli ta'lim" metodining bir ko'rinishi deyish mumkin. Bu metodning asosiy xususiyati o'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirishdir.

Bugungi kunda kompyuter ta'limning barcha sohalarida tobora o'ziga xos salmoqli o'rin egallamoqda. U orqali, ayniqsa, darsda tabaqalashtirib ta'lim berish imkoniyati katta. Jumladan, o'quvchilarni eng faol (eng qobiliyatli), sust (qoloq) toifalarga ajratib, har bir toifa o'quvchilar uchun kompyuterga alohida topshiriq kiritish mumkin. Kompyuterda o'quvchining savol-topshiriqlarga javob berish vaqti ham ko'rsatiladi. Vaqt savollarning og'ir-yengiliga qarab belgilanadi. Masalan, ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini o'stirsh, fikrni turli usullarda bayon qila olishga o'rgatish maqsadida kompyuter orqali topshiriqlar berish mumkin.

Ta'limda ko'rsatmalilikdan foydalanish-o'tiladigan mavzuni zohiriy ifodalash, egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda o'yinchoqlar, rasmlar, narsa-buyumlarni bevosita kuzatish, ushlab ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, egallashga xizmat qilsa, ko'rilganlarni og'zaki ifodalash ehtiyoji esa o'quvchida botiniy, mustaqil mushohada ko'nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy tadbirkorlik malakalarining hosil bo'lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-
T.:Ma'naviyat,2008.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining
poydevori.-T,: Sharq, 1997
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. O'zbekiston, 1994.
5. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T,:Yangi
asr avlodi, 2001.
6. Qosimova K.,Matchonov va boshqalar.Ona tili o'qitish
metodikasi.T,: Nosir,2009.
7. M.Yo'ldoshev., Z.Isoqov, Sh.Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili.
T.2010
8. G'ulomov A. Ona tili ta'limi mazmuni. T.: Universitet. 2001.
9. M.Hamrayev. Ona tili. T.2011
10. Бегматов э.,Бобоева А.,Асомиддинова М. Адабий норма ва
нутқ маданияти.Т,:Фан, 1983.
11. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda
innovation texnologiyalar.T.: 2008.
12. Неъматов Ҳ. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни. Ўзбек тили ва
адабиёти. 1988. 6-сон.38-43-бетлар.
13. Рахматуллайев Ш. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. Universitet.
2006.
14. Jamolxonov X.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili.T,:TDPU. 2004.
15. Tursunov U., Muxtorov J., Raхmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek
adabiy tili. T,:O'zbekiston.1992.
L.Jalolova. Til ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni.T.2010
16. Qilichev E.Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro.1999.

17. B.To‘xliyev, T.Ziyodova, M.Shamsiyeva. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.
18. 6-sinfda “Ot mavzusini o‘rganish tajribasidan”. X.Hoshimova. Til va adabiyot ta’limi. 2011-yil 1-son.
19. Mavzuni mustahkamlashda qiziqarli topshiriqlardan foydalanish. Til va adabiyot ta’limi. 2002-yil 5-son.
20. internet materiallari. www.google.uz.
21. internet materiallari. www.ziyonet.uz.